

**HAQQONIY TARIX – YANGI O'ZBEKISTONNING POYDEVORI****Ashurov Olimjon Soxibjon o‘g‘li***Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti**Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Milliy taraqqiyotimizning hal qiluvchi davriga kelib, jamiyatimiz havotiga yangi nafas olib kirish, ya’ni yangi O’zbekistonni barpo etish obektiv zarurat sifatida kun tartibiga chiqdi, uni amalga oshirish eng muhim strategik vazifaga aylandi.

Milliy tariximizning tub burilish nuqtasi – 2016 yil 4 dekabrda bo‘lib o‘tgan umumxalq saylovlari natijalariga ko‘ra O’zbekiston Prezidenti etib saylangan Shavkat Mirziyoev ana shunday ulkan tarixiy missiyani o‘z zimmasiga olgan yuksak irodali va qat’iyatli, donishmand siyosiy rahbar sifatida maydonga chiqdi. Tarixiy taraqqiyotimizning mutlaqo yangi davri – Yangi O’zbekiston davri boshlanmoqda.

Yangi O’zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir[1. b, 31].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentli Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiyligi va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo’llab-quvvatlash lozimligi ko‘rsatildi. “O’tmishga berilgan baho, – deyiladi murojaatnomada, – albatta, xolisona, eng muhimi turli mafkuraviy qarashlardan holi bo‘lish zarur”[4]. O’tmishdagi buyuk sarkarda va arboblarimizning yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish kerakligi aytildi. Shu maqsadda, “O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida “O’zbekiston tarixi” kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyojolarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak”ligi [4] murojaatnomada alohida qayd etildi. Bevosita yurtboshimizning tashabbusi bilan O’zbekiston tarixini o‘rganish ishlari jadallashtirildi. O’zbekiston tarixi fani ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida va bosqichlarida o‘qitilmoqda va bu borada davlat va hukumatning ko‘plab qaror va farmonlari qabul qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni ham biz tarixchilar oldimizga juda katta marralarni belgilab berdi. Farmonda yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi belgilab berildi.

Milliy tarixsiz milliy g‘oya va milliy mafkurani o‘zi bo‘lmaydi. Shunday ekan, milliy tariximiz qanday kechgan bo‘lsa, shundayligicha yaratmasdan turib, milliy g‘oyani ham, milliy mafkurani ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayni vaqtda Vatan tarixini bilish o‘zlikni anglash hamdir. Millatni millat, xalqni xalq qilib tanitadigan ham milliy tarixdir. Biroq istiqlolimizga va tariximizga ham ichkaridan, ham tashqaridan tahdid solayotgan kuchlar yo‘q emas[3. b, 4].

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarimiz natijasida, ayniqsa, 2017 - 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini hayotga joriy etish asosida mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy,

ma’naviy-ma’rifiy hayotini tubdan yangilash, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g‘oyasini real voqelikka aylantirish borasida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilayotganiga barchamiz guvohmiz.

Yoshlarda vatanparvarlik ruhi, yurtda daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishda vatanimizda yashab o‘tgan buyuk qahramonlar, sarkarda va qo‘mondonlar hayoti va jasoratini chuqr bilishi, ajdodlarimiz boy merosini o‘rganish va ular bilan g‘ururlanishi kerak.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur[2. b, 225]. Chunki, “milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, - degan edi muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan xalqimiz o‘zining kuch va imkoniyatlari, jahondagi rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga tayanib, milliy istiqlol g‘oyalariغا doimo sodiq qolib, suveren, zamonaviy davlat qurishga har tomonlama qodir ekanini amalda to‘liq isbotladi va asrlarga teng yo‘lni bosib o‘tmoqda Ushbu ishlarni amalga oshirishda shonli tariximizni haqqoniy yoritilishi amalga oshirayotgan ishlarimizga katta yordam bo‘ladi..

### **ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M. Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.: O‘qituvchi MU MChJ, 2021, 184 b.
2. Sh.M. Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021, 464 b.
3. R.Shamsutdinov. X.Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi. T.: “Akademnashr”, 2019, 576 b.
4. Xalq so‘zi. 2017 yil 4 avgust.
5. Xalq so‘zi. 2021 yil 20 yanvar.